



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING YASHASH MANZILIDAN CHET YEL
DAVLATIGA UZOQ MUDDATGA KETGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Tilloxadjaev Baxodir Abdullahanivich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta
o'qituvchisi*

Rahmonqulov Shohruh Nabijon o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi 311-guruh kursanti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining yashash manzillaridan chet yel davlatiga uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyati tushunchasi, ahamiyati, kriminologik tavsifi, xususiyatlari, shuningdek yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti tahlili, yashash manzillaridan uzoq muddatga chet yel davlatiga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatiga doir bir qator takliflar va bu boradagi ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari va ularni amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uzoq muddat, uzoq muddatga ketgan shaxs, megratqiya, profidaktik suhbat, fuqarolikni rasmiylashtirish, chet yelga chiqish, megratsion profilaktika, uzoq muddatda xorijda yurgan shaxs, Uzoq muddatga ketgan shaxslarni aniqlash.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish masalasiga alohida e'tibor berildi. Asosiy qonunimizda shaxsning huquq va erkinliklari oliy qadriyat deb belgilab qo'yildi. Respublikamizda davlat tuzilishi va siyosiy hayoti insonparvarlik prinsipi bilan to'ldirilgan bo'lib insonning hayoti, shaxsiy daxlsizligi, erkinligi oliy qadriyat hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolarimizning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy ahloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan ma'naviyatimizni fuqarolarimiz ongiga sindirilib borilishi har qanday salbiy ko'rinishlarni oldini olishda eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Shaxsning ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi jamiyatlardagi salbiy ijtimoiy illatlarni oldini olishning bir ko'rinishlaridan biridir. Shu bilan birga fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va ularni Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish hamda unga rioya qilish ruhida tarbiyalash ham katta ahamiyatga egadir.

Uzoq muddatga ketgan shaxs – doimiy yashash manzilidan turli sabablarga ko'ra, ya'ni: ishlash, davolanish, dam olish, sayohat qilish, xizmat safari, o'qish, tanishlarini ko'rib kelish va boshqa maqsadlarda respublika hududidan uch oydan kam bo'lmagan muddatga chiqib ketgan shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga kelib tushgan ma'lumotlarga ko'ra, chet elda uzoq muddatda bo'lgan fuqarolarimiz turli salbiy holatlar, ya'ni yo'l-



transport, yong'in va boshqa hodisalar tufayli vafot etgan yoxud odam savdosi yoki boshqa og'ir, o'ta og'ir jinoyatlarning qurboni bo'lgan. Oxirgi vaqtlarda jahon miqyosida ro'y berayotgan voqealarning tahlili din niqobi ostidagi turli kuchlarning ma'lum bir davlat yoki mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligini izdan chiqarish yo'li bilan amaldagi hokimiyatni egallashga qaratilganligini ko'rsatmoqda. Xususan, Suriya, Misr, Pokiston va boshqa davlatlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy beqarorlik siyosiy maqsadlarni ko'zlamoqda. Bunga erishish yo'lida diniy ekstremizmning g'oyaviy qarashlaridan va turli terrorchilik harakatlari orqali tinch aholi orasida qo'rquv hamda davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlik ruhini uyg'otish kabi usullardan keng foydalanilgan.

Profilaktika inspektorining yashash manzilidan uzoq muddatga ketgan shaxslar aniqlash va ular bo'yicha ishlash tartibi.

Fuqorolarning horijiy davlatlariga chiqqanliklari holatini, ularning maqsadlari va qaerga ketganliklarini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Vaholanki, uzoq muddatlarga chet elga chiqayotgan fuqarolar bu haqda hududiy profilaktika (katta) inspektori yoki ichki ishlar organlariga xabar bermaydilar. Shuningdek, uzoq muddatga chet elga chiqqan yaqin qarindoshlari haqida tegishli idoralar yoki hududiy profilaktika inspektorlariga belgilangan tartibda xabar beradigan fuqarolar ham kamdan-kam topiladi. Ushbu holat ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, xususan, hududiy profilaktika inspektorlaridan bunday toifa fuqarolarni, ularning qaerga va nima maqsadda ketganligini turli xil, jumladan tezkor yo'llar bilan aniqlashni talab etadi.

Uzoq muddatga ketgan shaxslarni aniqlash – doimiy yashash manzilidan turli maqsadlarda uzoq muddatga respublika hududidan chiqib ketgan shaxslar haqida tegishli manbalardan zarur ma'lumotlarni olish hamda olingan ma'lumotlarni tezkor yo'llar bilan tekshirib ko'rish.

Profilaktika inspektori ichki ishlar organlari xodimlari doimiy yashash manzilidan turli sabablarga ko'ra uzoq muddatga chet elga ketgan va qaytib kelgan shaxslarni aniqlab har biri bo'yicha "Uzoq muddatga ketgan shaxs xaqida ma'lumot " varaqasini to'ldirib, tezkor xizmatlarga taqdimetib boradi, uzoq muddatga chet elga chiqib ketgan shaxslarni, ularning chiqib ketish maqsadlarini aniqlash, bu toifadagi shaxslar, ularning yaqinlari bilan tushuntirish, ogohlikka chaqirish, viktimologik va tezkor- profilaktik ishlarni olib borish, ular orasidan odam savdosi, narkotrafik, diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etishga yoki ularning qurboni bo'lishga moyil bo'lgan shaxslarni, ularning jinoiy aloqalarini aniqlash, shuningdek diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatga aloqadorligini tekshirish, ularning jinoiy faoliyatini fosh etish va unga chek qo'yish maqsadida muntazam ravishda kerakli chora- tadbirlarni amalga oshirib borishlari lozim.

Uzoq muddatga chet elga chiqqan fuqarolar orasidan ayrim toifa fuqarolarni, ayniqsa noqonuniy yo'llar bilan ish izlab ketganlarini respublikamizga qaytarish choralari ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda profilaktika inspektorlari va tezkor-qidiruv xizmatlari xodimlari ularning oila a'zolari va yaqinlari bilan profilaktik suhbatlar, targ'ibot-tashviqot ishlarini o'tkazadilar.

Ushbu faoliyatning samarali bo'lishida profilaktika (katta) inspektorlari, tezkor-qidiruv xizmatlari xodimlari uzoq muddatga chetelga chiqishning oqibatlarini jonli



misollar bilan tushuntirib berishlari, uning ijtimoiy xavfini fuqarolar ongi va shuuriga singdirishlari muhim vositalardan biridir.

Profilaktika inspektori yashash manzillaridan uzoq muddatga ketib qaytib kelgan fuqarolar bilan quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- qaytib kelgan fuqarolar bilan suhbat o'tkazib, uning qaysi mamlakatga va nima sababdan borganligini aniqlaydi;

- tibbiy ko'rikdan o'tkazish choralari ko'radi;

- doimiy yashash joyiga qaytib kelgan fuqaroni mahalla fuqarolar yig'inida mahalla faollari ishtirokida muhokama qilish, uning mavjud muammolarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanishini ta'minlaydi;

- doimiy yashash joyiga qaytib kelgan shaxs odam savdosi jinoyat qurboni bo'lganligi aniqlanganda, ularni odam savdosidan jabrlanganlar yordam ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan muassasalarga yuborish choralari ko'radi;

- doimiy yashash joyiga qaytib kelgan fuqaroning shubhali harakatlari aniqlanganda bu haqda tuman-shaxar IIB raxbariyatiga bildirgi orqali xabar beradi va tezkor xizmatlar bilan hamkorlikda tegishli tezkor- profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- hokimliklar, mahalla fuqarolar yig'inlari, bandlik va mehnat munosabatlari organlari bilan hamkorlikda mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish choralari ko'radi;

- yashash manzillaridan uzoq muddatga ketib qaytib kelgan voyaga yetmagan shaxs bo'lsa ularni akademik-litsey va kasb hunar kollejlari o'qishga joylashtirish yoki kasbga o'rgatish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilaydi;

- yashash manzillaridan uzoq muddatga ketib qaytib kelgan shaxsning ilgari sudlanganligi aniqlansa ularni hokimlik huzuridagi maxsus komissiyalar orqali ishga joylashtirish, moddiy yordam ko'rsatish choralari ko'radi;

- kam ta'minlangan oilaligi aniqlansa ularga ijtimoiy nafaqalarni tayinlash yuzasidan mahalla fuqarolar yig'inlariga tavsiyalar kiritiladi;

- sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorlikda fuqarolarga yoshga doir va nogironlik pensiyalarini o'z vaqtida tayinlanishi va tarqatilishi borasida hamkorlik qiladi, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan korxona, muassasa va tashkilotlarga taqdimnomalar kiritadi;

- xorijiy davlatlarda jinoyat sodir etganligi uchun o'sha davlatning qonunlari bilan jinoiy javobgarlikka tortilib jazo o'tab qaytgan shaxslarni «muqaddam sudlangan shaxs sifatida» hisobga olish va ularga pasport olishlari, ro'yxatdan o'tishlari, vaqtinchalik yoki doimiy yashash joyi bilan ta'minlanishida ko'maklashadi;

- xorijiy davlatlarda pasportini yo'qotgan va deportatsiya qilinib qaytib kelgan shaxslarga pasport olishlari va dimiy ro'yxatdan o'tishlarida ko'maklashadi;

Xorijiy davlatlarga noqonuniy yo'llar bilan ketib qaytib kelgan fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan javobgarlikka tortish choralari ko'radi (ma'muriy javobgarlikka tortish uchun sud organlari yoki Bojxona organlariga to'plangan xujjatlarni taqdim etadi, jinoiy javobgarlikka tortish uchun to'plangan hujjatlarni tergov organlariga taqdim etadi);

- uzoq muddatga chiqib ketgan va qaytib kelgan fuqarolarning chet davlatlarda turli terroristik va ekstremistik oqimlar ta'siriga qo'shib qolish holatlarini aniqlash maqsadida, doimiy ravishda «Migrant» tadbirini amalga oshirib boradilar;



– yashash joyidan uzoq muddatga ketgan va qaytib kelgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha sohaviy xizmatlar, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi ishlarni tashkil etadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Fuqaro uzoq muddatga chet elga chiqib, yashash manziliga qaytib kelgandan so'ng hudud profilaktika inspektori va mahalla fuqarolar yig'inlarining faollari, eng avvalo, ushbu fuqaroning mahalla fuqarolar yig'iniga murojaat etib, «Uzoq muddatga chet elga chiqqan va qaytib kelgan mahalla (qishloq, ovul) fuqarolarini qayd etish kitobi»dan belgilangan tartibda qayddan o'tishlarini ta'minlashlari, chet elda biror bir jinoyat yoki g'ayriijtimoiy xatti-harakatning, aldovning qurboniga aylanib qolmaganligi, huquq va erkinliklari buzilmagaligini aniqlash choralari ko'radi, zarur hollarda fuqaroga tegishli yordam ko'rsatadi hamda qaytib kelgan shaxslarning har biri bo'yicha "Uzoq muddatga ketgan shaxs xaqida ma'lumot" varaqasini to'ldirib, tezkor xizmatlarning «Uzoq muddat» ishchi guruhiga taqdim etib boradi.

Uzoq muddat xorijiy davlatda bo'lib yashash manziliga qaytgan yoki odam savdosidan jabrlangan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar hududiy profilaktika inspektori tomonidan kunlik umumlashtiriladi va bu fuqarolarning ro'yxati uning familiyasi, ismi, sharifi, yoshi, yashash manzili va qaysi davlatda qancha muddat bo'lib, qachon hududga kirib kelganliginiko'rsatgan holda 1 kun muddatda mazkur hududdagi davolash-profilaktika muassasasi (qishloq vrachlik punkti, poliklinika)ga taqdim qilinadi

Hududiy davolash-profilaktika muassasasi uzoq muddat xorijiy davlatda bo'lib yashash manziliga qaytgan yoki odam savdosidan jabrlangan fuqarolar ro'yxatini hududiy profilaktika inspektoridan olgan vaqtdan 1 kun muddat ichida ushbu fuqaroni tibbiy ko'rikka jalb qilish choralari ko'radi.

Istiqlolga erishganimizdan buyon o'tgan qisqa davr ichida O'zbekiston tarixiy bir masofani bosib o'tdi. Buning tasdig'i oldin o'zimizga tasavvur etishimiz xam qiyin bo'lgan taraqqiyot yo'lida, isloxotlar yo'lida, yangilanish yo'lida erishilgan yutuqlarimizda, kundalik xayotimizda o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy xayotida yuz bergan barcha o'zgarishlarda ichki ishlar xodimlarining ham o'ziga xos o'rni, hissasi bor, albatta.

Jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish, ayniqsa unga ta'sir qiluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun uning mohiyati, kelib chiqish tarkibi va ko'rinishlari, rivojlanish qonuniyatlari va tarixiy kelajagi xaqida chuqur ilmiy asoslangan bilimga ega bo'lish lozim. Jinoyatchilik insoniyat tarixida davlat va huquqning paydo bo'lishi bilan bog'liq xolda vujudga kelgan o'zgaruvchan, o'z ichiga shu jamiyatdan ma'lum bir vaqtda sodir qilingan barcha jinoyatlar yig'indisini olgan, belgilangan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan ta'riflanadigan ijtimoiy huquqiy hodisadir.

Islohotlarning bugungi bosqichida Prezidentimiz tashabbusi bilan ichki ishlar organlarini aholiga yaqinlashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat tartibini saqlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirdi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad avvalo, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan professional tuzilmagan aylantirish hamda fuqarolarning ularga ishonchini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.



1. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son qonuni.
2. Таштемиров А. А. и др. Хуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.
3. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида хуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.
4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.
5. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.
6. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.
7. Аминов Ш. Н., Мирсалихова Г. А. Ёшларда экстремизмга қарши иммунитетни шакллантириш йўналишлари //Innovation in the modern education system. – 2025. – Т. 6. – №. 49. – С. 215-225.
8. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.
9. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.
10. Аминов Ш. Н. Терроризм ва экстремизмнинг жамият барқарорлигига таҳдиди //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2025. – Т. 8. – №. 2. – С. 15-22.
11. Аминов Ш. Н. Возникновение терроризма, а также факторы, его вызывающие //Международная конференция академических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 167-173.
12. Мирзахмедов А. М., Аминов Ш. Н., Холматов Ф. М. Таълим сифати-ижтимоий тараққиёт омили //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 424-432.



13. Холматов Ғ. М., Аминов Ш. Н. Фарғона водийсида жади́длик: миллий маданият муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 848-856.

14. Асракулов М. М., Мирсалихова Г. А. Ички ишлар органлари тезкор-қидирув фаолиятининг вазифаларини ҳал этишда овоз ёзиш воситаларини қўллаш тартиби //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2025. – Т. 4. – №. 44. – С. 268-276.

15. Таштемиров А. А. и др. Жамиятда фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришда иио профилактика инспекторларининг асосий вазифалари //Scientific approach to the modern education system. – 2025. – Т. 3. – №. 35. – С. 91-96.